



TILSHUNOSLIKDA DISKURS VA MATN TUSHUNCHALARINING CHEGARALARI VA BIR-BIRI BILAN MUNOSABATLARI

Abduraxmonova Naziraxon Alisher qizi
Abdurakhmonova Naziraxon Alisher kizi

O'zDJTU Xitoy tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi
tel: 99-8310138

e.mail: abdurakhmanova-nazira@mail.ru
UzSWLU Lecturer at the Department of
Theory and Practice of the Chinese language
tel: 99-8310138

e.mail: abdurakhmanova-nazira@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6720854>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

diskurs, matn, kogeziya,
kogerensia, funksional,
struktur, jarayon,
mahsulot, dinamik, statik.

“Diskurs” atamasi ilm-fanga azaldan kirib kelgan va endi uning ishlatilishining qonuniyligini oqlashga hojat yo'qdek tuyuladi. Tadqiqotning bir – biridan tubdan farq qiladigan sohalarida foydalanish ushbu atamani turlicha talqin qilishga olib keldi. Shubhasiz, uni ishlatish chastotasi yangiliklarning jamoaviy taqlidi sifatida diskursning modasini keltirib chiqardi va ular tilshunoslikda azaldan ro'yxatdan o'tgan tushunchalar va atamalarining o'rnini bosa boshladilar. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, diskurs terminologiyada shakllangan joyni qonuniy ravishda egallab oldi, o'ziga xos ta'rifini oldi va eng muhimi, lingvistik tahlil

ABSTRACT

Mazkur maqola tilshunoslikda diskurs tushunchasining matn tushunchasi bilan munosabati va farqli tomonlarini, dunyo tilshunoslarining qarashlari asosida yoritib berishga bag'ishlangan. Shuningdek maqolada ushbu ikki “diskurs” va “matn” tushunchalari dunyo olimlarining fikrlarini jamlagan holda diagramma ko'rinishida berib o'tilgan. Tilshunoslarning izlanishlarini o'rganib, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash unchalik ham ma'qul emas degan xulosaga kelingan. Diskursning turli xil ta'riflarini umumlashtirib, ushbu hodisani tushunishning ikkita yondashuvini ajratish mumkin: kommunikativ – og'zaki va tarkibiy – matniy.

imkoniyatlarini kengaytirishga imkon berdi.

Tilshunoslikda diskurs an'anaviy ravishda so'zlash, nutq, nutqiy faoliyat, matn, kommunikativ vaziyat, monolog, dialog kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu bir tomondan, diskursning qaysi hodisalar turkumiga mansubligini tushunishga olib keladi, boshqa tomondan esa, ushbu hodisalarning o'ziga xosligi to'g'risida yolg'on tasavvur hosil qiladi.

Maqolaning maqsadi diskursni nutq va matn bilan qiyoslashdir, bu qiyoslash quyidagilarga imkon beradi: birinchidan, diskurs tushunchasining o'zini aniqlash va uni unga yaqin, lekin aynan o'xshash



bo'lmagan tushunchalardan farqlash; ikkinchidan, diskursni sharxlashda asosida diskurs – nutq, diskurs – matn aloqalari yotadigan yondashuvlarni ajratish; uchinchidan, diskursning asosiy belgi (xususiyat)larini aniqlash.

Diskurs – jumladan ustun til, matn – ham jumladan ustun tildir. Bu ularning chegaralari va bir–biri bilan munosabatlari to'g'risida savol tug'diradi. Tilshunoslar XX asrda birinchi navbatda matn yoki diskurs degan savolni ko'tarishdi. Diskursning dinamik tomoniga, shuningdek, matnga nisbatan diskursning ustunligiga urg'u berish diskursni aloqa nazariyasida izohlashning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi: bu yerda diskurs kommunikativ harakat sifatida tushuniladi, uning davomida matnlar ishlab chiqariladi va aniq ifodalanadi. Matn birlamchi degan nazariyani qo'llab – quvvatlovchilar diskurs tilni (mavhum belgilar tizimi sifatida) va matnlarni (mavhum aqliy konstruktsiyalar sifatida) dolzarblashtirilishiga murojaat qilishadi.

Shunga qaramay, matn va diskurs bir – biriga bog'liqdir. Har qanday diskurs ham matndir. Ammo har bir matn ham diskurs emas. Masalan: javondagi kitob – o'quvchi (adresat)ning qo'lga tushmagungacha matn bo'ladi.

Diskurs va matn o'rtasidagi tub farqlar quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- 1) diskurs pragmatik, matn faqat lingvistik kategoriya;
- 2) diskurs –bu jarayonning kategoriyasi, matn – natijaning kategoriyasi (u statik "turg'un"dir);
- 3) matn – bu mavhum konstruktsiya, diskurs uni aktuallashtirilgani.

Bu farqlar yanada batafsilroq quyidagicha shaklda ko'rinadi:

Diskurs so'zlashning ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan joyda paydo bo'ladi; matn semantik yaxlitlik va grammatik to'liqlik xususiyatlariga ega bo'lgan mavhum aqliy konstruktsiyaning bir turi. Diskurs kommunikativ – ijtimoiy sohaning atributidir, matn ongning atributidir. Shunday qilib, masalan, "Qonunni buzma!" jumlasida diskursning elementi sifatida ham, matn sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin. Diskurs tadqiqotchisi, bayonotda ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan va aniq amaliy, vaziyatli amaliy ma'noga ega bo'lgan aniq bir harakatga ishora qilishiga e'tibor qaratadi. Ob'ekt bo'lgan joyda va unga nisbatan ma'lum harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan tiyilish (o'tish yoki o'tmaslik) imkoniyati mavjud bo'gan makonga mos keladi. Aks holda, ushbu bayonotdan foydalanish amaliy ma'nosini yo'qotadi. Matn tadqiqotchisi gapning ichki sintaktik va semantik aloqalari va uning kognitiv ta'siri bilan qiziqadi.

Matn va diskurs o'rtasidagi farq quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin (ularning hech biri mutlaq emas, lekin ularning kombinatsiyasi matn va diskurs o'tasidagi farqlarni tushunish):

1. *Yozma matn* yoki *og'zaki diskurs* qatori bo'yicha;
2. *Vaziyat* tushunchasini jalb qilish orqali: $diskurs = matn + vaziyat$ (*kontekst*); mos ravishda, $matn = diskurs - vaziyat$;
3. An'anaviy qarshilik *dialog – monologga* asoslangan: diskursning interaktivligi (dialogliligi) matndan farqli o'laroq ta'kidlangan, odatda bitta muallifga tegishli;
4. *Harakatlar* konsepsiyasiga murojaat qilish: matndan farqli o'laroq, diskurs



nafaqat tildan foydalanishning maxsus shaklini, balki ijtimoiy o'zaro ta'sirning (kommunikatorlarning jinsi, millati, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari muhim ahamiyatga ega);

5. Va boshqa shunga o'xshash mezonlar:

funksionallik

strukturlik

diskurs

jarayon

mahsulot

matn

dinamiklik

statiklik

Funksional, dinamik diskurs – *jarayon* kabi va struktur, statik matn – *mahsulot* sifatida farqlanadi.

➤ V.E.Chernyavskaya: diskurs matn tushunchasini takrorlamaydi, chunki diskurs aloqaviy va aqliy jarayonni anglatadi, matnning ma'lum bir rasmiy tarkibiy shakllanishiga olib keladi [9, b. 68-81].

➤ J.Lich: matn – diskurs paydo bo'ladigan xabar orqali amalga oshadi.

➤ N.S.Valgina: yaxlitlik va bog'liqlilik matnning asosiy tarkibiy xususiyatlari[2, b. 43- 52].

➤ M.M.Krongauz: diskurs tahlilda bog'liqlilik o'rniga kogeziya (uyg'unlik) va kogerensia (izchillik) haqida gapiriladi, yaxlitlik o'rniga birnecha xususiyatlardan foydalaniladi:

- Intensivlik – berilgan matn/diskurs yordamida ma'lum maqsadlarga erishish uchun ongli niyat;

- Axborotlilik – matn /diskurs umuman yangi va tushunarli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak;

- Vaziyatlilik – nutqni amalga oshiradigan yoki ushbu matn bilan bog'liq bo'lgan vaziyatni hisobga olish kerak;

- Maqbullik – tinglovchi yoki muayyan auditoriyaning roziligi matn sifatida qaraladi[6, b. 215-224].

Belgilangan yondashuvlar qisman qarama-qarshi. "Diskurs" tushunchasi nutq va matn tushunchalari bilan uzviy bog'liqlikda tushuniladi. Diskurs kommunikativ hodisa sifatida – bu bir tomondan nutqni huddi verbal aloqa faoliyati sifatida, boshqa tomondan esa aloqa paytida ma'lum bir matn sifatida birlashtirilgan oraliq o'rtasidagi aloqadir. Oddiy qarama – qarshilikda diskursni huddi haqiqiy nutq mahsuloti bilan bog'liq aqliy jarayon sifatida, matn esa nutqiy faoliyat jarayonining yakuniy natija, ma'lum bir tugallangan shakl sifatida tushunish kerak. Haqiqiy nutqning uning natijasiga qarshi turishi, matn chindan idrok etilganda va u idrok etayotgan shaxsning ongiga yetib borgandagina matnni diskurs sifatida talqin qilinishi mumkinligini anglash(tushunib yetish)ga olib keladi. G. Vidousen "vaziyat" toifasini kiritish orqali ushbu ikki "matn"va "diskurs" tushunchasini farqlashga urundi. Shunday qilib, diskurs "matn" + "vaziyat" deb qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan tilshunoslarning matn va diskurs mezonlari haqidagi tadqiqotlarini umumlashtirgan va ixchamlashtirgan holda quyida diagramma (Diagramma 1) orqali berib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.



Diagramma:

Diskurs:

1. Diskurs pragmatik kategoriya;
2. Diskurs – bu jarayonning kategoriyasi;
3. Diskurs matnning aktuallashtirilgani;
4. Diskurs = matn + vaziyat (kontekst);
5. Diskurs – dialog;
6. Funksional, dinamik diskurs – *jarayon* ;
7. Diskursning interaktivligi (dialogliligi) matndan farqli;
8. Kommunikatorlarning jinsi, millati, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari muhim ahamiyatga ega;
9. Diskurs aloqaviy va aqliy jarayonni anglatadi;
10. Diskurs kommunikativ – ijtimoiy sohaning atributidir.

Matn:

1. Matn lingvistik kategoriya;
2. Matn – natijaning kategoriyasi (u statik);
3. Matn – bu mavhum konstruktsiya,
4. Matn = diskurs – vaziyat;
5. Matn – monolog;
6. Struktur, statik matn – *mahsulot*;
7. Matn – diskurs paydo bo'ladigan xabar orqali amalga oshadi;
8. Yaxlitlik va bog'liqlilik matnning asosiy tarkibiy xususiyatlari;
9. Matn onning atributidir.

Diskurs/matn:

1. Diskurs – matn ikkisi ham jumladan ustun tildir;
3. Diskurs – dialog, matn – monolog odatda bitta muallifga tegishli bo'ladi;
4. Intensivlik – berilgan matn/diskurs yordamida ma'lum maqsadlarga erishish uchun ongli niyat;
5. Axborotlilik – matn /diskurs umuman yangi va tushunarli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Nutqiy tuzilmalarning matn maqomini olishida kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining munosabati ham muhimligini unutmaslik lozim. A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori uning faqat muallif yoki retsipient bilan munosabatda faollashuvidagina matn bo'la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi,

insonning ishtirokisiz tasavvur qilinayotgan matn faqatgina «moddiy gavda» ko'rinishini oladi [8, b.25]. Taniqli psixologvist A.A.Zalevskayaning fikriga batamom qo'shilishni istasak ham, lekin bir kichik e'tirozimizni bildirmaslikning imkoni yo'q. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag'ishlovchi faoliyatning ijrochisi (muallif yoki retsipient)siz hech qanday



qiyamatga (olimaning ta'biricha – «ichki quvvatga») ega bo'lmaydi, ammo matnning o'z-o'zicha, alohida «gavda» (telo teksta) sifatida mavjud bo'lishini tasavvur qilish qiyinligini olima unutgandek ko'rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo'lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin qarama – karshi qo'yish an'anasidan to'liq voz kecha olmaganidan bo'lsa kerak. Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik – nofaollik, dinamik–statik xususiyatlarning qarama – qarshiligi bilan bog'lashga intilayotganlar oxir – oqibatda matnni yozma nutq mahsuli, diskursni esa og'zaki muloqot mahsuli sifatida ta'riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo'sindagi talqin, so'zsiz, ularning birini (matn) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko'rinishida tasavvur qilishga undaydi[1, b.102.].

Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug'dirishi mumkinligi tilshunoslarimiz tomonidan e'tirof etilgan[9, b.68-81; 10, b. 224; 11 b.63- 66]. Biz ham ularning fikrlarini quvvatlagan holda matnning yozma va og'zaki ko'rinishda mavjud bo'lishini batamom e'tirof etamiz. Shu bilan birgalikda, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida

qarash ham unchalik ma'qul bo'lmasa kerak. Bizningcha, Sh.Safarovning «diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning ko'rinishidir»[11, b. 48.], degan ta'rifiga ergashgan ma'qul.

Shunday qilib, «diskurs» tushunchasining yuqoridagi ta'riflarini sarhisob qilar ekanmiz, ushbu atama zamonaviy tilshunoslikda tushunilganidek, ammo muloqotning dinamik, ya'ni vaqt o'tishi bilan rivojlanib boruvchi mohiyatini ta'kidlaydi; bundan farqli o'laroq, matn birinchi navbatda statik ob'ekt, lingvistik faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Ayrim tadqiqotchilar diskursni bir vaqtning o'zida ikkita tarkibiy qismni o'z ichiga olgan holda izohlaydilar: uning ijtimoiy sharoitida yozilgan lingvistik faoliyatning dinamik jarayoni va uning natijasi (ya'ni matn); aynan shu afzal tushunchadir.

Dunyo va o'zbek tilshunoslarining matn va diskurs tushunchalarini farqlashga qaratilgan fikrlarini o'rganish natijasi shuni ko'rsatdiki, diskursning bir tomoni pragmatikaga, muloqotning odatiy holatlariga, ikkinchisi aloqa ishtirokchilari ongida sodir bo'layotgan jarayonlarga, uchinchisi esa matnning o'ziga qaratiladi. Bu so'zlashuvni bir vaqtning o'zida ham jarayon sifatida, ham natijada sobit matn shaklida ko'rib chiqish mumkin, degan fikrga asos bo'ldi.

References:

1. Архипов В. К. «Знак - предмет» и «знак - ситуация»: текст и дискурс. В кн.: Архипов В. Человеческий фактор в языке. -СПб., 2003.
2. Валгина Н.С. Теория текста: Учебное пособие. – М.:Логос, 2003.
3. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие – М.: Лабиринт, 2004.
4. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: КомКнига, 2006.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004.



6. Кронгауз М.А. Семантика: Учебник для студ. лингв. фак. высш. учеб. заведений. – М.: «Академия», 2005.
7. Кибрик А.А., Паршин П.Б. 2001. Дискурс. Энциклопедия «Кругосвет». <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/1008254a9.htm>
8. Залевская А. А. : Текст и его понимание. - Тверь: ТвГУ, 2003.
9. Чернявская В.Е. Дискурс власти и власть дискурса: проблемы речевого воздействия: учеб. пособие / В.Е. Чернявская. – М.: Флинта: Наука, 2006.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
11. Хегай В. О. О понятии дискурс // Filologiya masalalari. 2006, № 2 (11).
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent: Fan, 2008.
13. 邓小亚. 列文森话语分析理论的优缺点[J].科技信息, 2010年.
14. Щичко В.Ф. Китайский язык: Теория и практика перевода. – М.: Восток-Запад, 2004.